



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**



# TASHQI SAVDO AYLANMASI

✓ Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2023- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4207,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 243,9 mln. AQSh dollariga yoki 6,2 % ga ko'paygan.





TSAda eksport hajmi 1370,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 91,4 %) va import hajmi 2836,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 115,1 %) yetdi. Hisobot davrida -1326,7 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



### TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan, %da)





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar-sentabr, mln.AQSH dollari)



**Xitoy**  
TSA-1052,7  
ulushi- 25,0%  
Eksport-318,8  
Import-733,9



**Rossiya Federatsiyasi**  
TSA-893,3  
ulushi-21,2%  
Eksport-360,2  
Import-533,0



**Qozog'iston**  
TSA-654,8  
ulushi-15,6%  
Eksport-83,5  
Import-571,3



**Turkiya**  
TSA-347,8  
ulushi-8,3%  
Eksport-222,3  
Import-125,5



**Braziliya**  
TSA-208,9  
ulushi-5,0%  
Eksport-0,0  
Import-208,9



**Italiya**  
TSA-128,5  
ulushi-3,1%  
Eksport-17,4  
Import-111,0



**Germaniya**  
TSA-89,5  
ulushi-2,1%  
Eksport-7,3  
Import-82,2



**Singapur**  
TSA-85,4  
ulushi-2,0%  
Eksport-51,7  
Import-33,7



**Belorussiya**  
TSA-78,3  
ulushi-1,9%  
Eksport-16,6  
Import-61,7



**Qirg'iz Respublikasi**  
TSA-76,2  
ulushi-1,8%  
Eksport-55,3  
Import-20,9



**Tojikiston**  
TSA-71,5  
ulushi-1,7%  
Eksport-34,0  
Import-37,5




**Afg'oniston**  
TSA-39,1  
ulushi-0,9%  
Eksport-38,1  
Import-1,0



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,6 %ni hamda o‘zgarish sur‘ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 100,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 56,4 %ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,7 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,5 %ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI  
VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI  
(2023- yil yanvar-sentabr, % hisobida)**




## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI



MDH davlatlaridan Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)



Hozirgi kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2023-yil yanvar-sentabr oyi yakuni bilan 1370,5 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 91,4 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (63,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,5 %), turli xil tayyor buyumlar (13,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,2 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,1 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (3,0 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Xizmatlar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar-sentabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>1370,5</b>	<b>585,1</b>	<b>785,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>						
<b>oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	157,7	89,0	68,7	11,5	15,2	8,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	6,1	5,7	0,4	0,4	1,0	0,1
<b>Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)</b>	43,4	16,8	26,6	3,2	2,9	3,4
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar</b>	4,3	1,6	2,7	0,3	0,3	0,3
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>	1,3	0,1	1,2	0,1	0,01	0,2
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar</b>	56,4	48,3	8,1	4,1	8,3	1,0
<b>Sanoat tovarlari</b>	870,1	208,2	661,9	63,5	35,6	84,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	41,3	33,9	7,4	3,0	5,7	0,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	186,0	179,7	6,3	13,6	30,7	0,8
<b>Xizmatlar</b>	3,9	1,8	2,1	0,3	0,3	0,3






## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, ichimliklar va tamaki, hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>91,4</b>	<b>101,6</b>	<b>85,0</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	106,9	104,8	109,6
Ichimliklar va tamaki	2,1 m.	2,1 m.	3,0 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	82,4	61,1	105,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	159,6	2,4 m.	132,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	85,8	29,2	94,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	95,3	107,4	57,0
Sanoat tovarlari	83,9	85,6	83,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	86,1	109,7	43,4
Turli xil tayyor buyumlar	129,0	129,4	118,0
Xizmatlar	89,7	92,6	87,3

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Singapur va Afg'oniston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1129,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 82,4 %ini tashkil qiladi.

import



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 99,4 mln. dollar qiymatga ega 175,8 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 9,6 %ga ko'paygan, naturada – 22,1 %ga ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 49,7 mln. AQSh dollariga teng 114,6 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 46,4 %ga ko'paygan), shuningdek 30,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 32,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 16,4 %ga ko'paygan).

2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
32,2 ming tonna  
30,7 mln.  
AQSH dollari



Uzum  
17,4 ming  
tonna  
14,7 mln.  
AQSH dollari



Yeryon-g'oqlar  
0,3 ming tonna  
0,2 mln. AQSH  
dollari



Sabzavotlar  
114,6 ming tonna  
49,7 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 80,4 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,9 %ini tashkil qiladi.


## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida import hajmi 2836,6 mln. AQSh dollari (2022- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (30,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,1 %), sanoat tovarlari (16,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar-sentabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>2836,6</b>	<b>1250,7</b>	<b>1585,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	485,3	211,8	273,5	17,1	16,9	17,2
Ichimliklar va tamaki	4,5	4,0	0,5	0,2	0,3	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	399,4	336,0	63,4	14,1	26,9	4,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	202,9	198,6	4,3	7,2	15,9	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	59,6	47,0	12,6	2,1	3,8	0,8
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	288,5	66,7	221,8	10,2	5,3	14,0
Sanoat tovarlari	454,8	278,2	176,6	16,0	22,2	11,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	873,0	95,3	777,7	30,7	7,7	49,1
Turli xil tayyor buyumlar	64,8	11,4	53,4	2,3	0,9	3,4
Boshqa tovarlar	0,6	0,4	0,2	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	3,2	1,3	1,9	0,1	0,1	0,1




Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari) (26,9 %) va sanoat tovarlari (22,2 %) MDH mamlakatlariga toʻgʻri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (49,1 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,2 %) hissasiga toʻgʻri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA  
XIZMATLAR IMPORTNING OʻZGARISH SURʼATLARI  
(2023- yil yanvar-sentabr, % hisobida )**

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>115,1</b>	<b>99,3</b>	<b>131,7</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	94,8	97,4	92,9
Ichimliklar va tamaki	102,1	91,5	822,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari)	83,0	74,0	234,4
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shu kabi materiallar	2,4 m.	2,4 m.	2,8 m.
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	136,5	117,6	3,4 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	110,1	91,2	117,3
Sanoat tovarlari	102,4	90,1	130,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	163,0	155,1	164,1
Turli xil tayyor buyumlar	75,1	85,2	73,3
Boshqa tovarlar	22,7	21,2	26,0
Xizmatlar	52,7	104,0	39,2

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar - sentabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Braziliya, Turkiya, Italiya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2365,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,4 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (71) 202-86-59**